

**2025-yil “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”ga bag‘ishlangan  
“Yashil makonda – yashil iqtisodiyot” nomli videoroliklar tanlovini o‘tkazish  
NIZOMI**

**I.Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom yoshlar o‘rtasida “Yashil makonda – yashil iqtisodiyot” nomli videoroliklar tanlovini (keyingi o‘rinlarda – tanlov deb yuritiladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti tanlov tashkilotchisi hisoblanadi.

3. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida bakalavriat, magistratura hamda doktorantura yo‘nalishlarida tahsil oluvchi millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tilidan qat’iy nazar bo‘lgan talaba-yoshlar tanlovda ishtirok etadilar.

4. Tashkiliy qo‘mita tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish vakolatiga ega.

**II. Tanloving maqsadi va vazifalari**

5. Tanloving asosiy maqsad va vazifalari quyidagicha:

Ushbu tanlov atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishni targ‘ib qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishlarining oldini olish, ozon qatlamining yemirilishi, cho‘llanish, atmosfera havosining ifloslanishi kabi global ahamiyatga ega masalalarni hal etishga yo‘naltirilgan qisqa metrajli filmlar va videoroliklar tayyorlash;

ekologiyaga zarar berilishini oldini olish, ekotizimlarni himoya qilish va tiklash;

shahar va qishloqlarda daraxt ekish bo‘yicha keng ko‘lamda ish olib borilayotganligini keng targ‘ib etish;

atrof-muhitni muhofaza qilish, o‘simmiliklar va hayvonot dunyosini, atmosfera havosi va tabiiy resurslarni asrash hamda chiqindi muammolarini bartaraf etish;

iqtidorli talaba-yoshlarning ijodi hamda tashabbuslarini keng ommaga ayniqsa, yoshlar orasida targ‘ib etish, ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish.

**III. Tanlovi o‘tkazish bosqichlari, muddatlari yo‘nalishlari**

6. Tanlov 2 bosqichda hamda 1 ta yo‘nalishda o‘tkaziladi.

**Birinchi bosqich:** asosiy bosqich bo‘lib, mazkur bosqichda institutda tahsil oluvchi barcha talaba-yoshlar (ta’lim shaklidan qat’iy nazar) ishtirok etishlari mumkin.

**Ikkinchi bosqich:** birinchi bosqichda g'olib bo'lgan talaba-yoshlar o'rtasida institutda yakuniy bosqich o'tkaziladi. Videorolik yo'nalishi.

7. Tanlov yo'nalishlari ishtirokchilarining soniga qarab, uni tartibli va mazmunli tashkil etish maqsadida yo'nalishlar bo'yicha har xil vaqtida tashkil etilishi mumkin.

8. Tanlovnini o'tkazish rejasini arizalar qabul qilingandan so'ng institut tashkiliy qo'mitasi tomonidan belgilanadi va e'lon qilinadi.

9. Institut bosqichini o'tkazish sanalari tashkiliy qo'mita tomonidan belgilanadi va kamida 10 kun oldin e'lon qilinadi.

#### **IV. Tanlov shartlari**

10. Tanlovda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bakalavriat, magistratura hamda doktorantura yo'nalishlarida tahsil oluvchi talaba-yoshlar (ta'lim shaklidan qat'iy nazar) ishtirok etadi.

11. Tanlovga topshiriladigan videoroliklar vaqtini **1 daqiqa dan 3 daqiqa gacha bo'ladi.**

12. **2025-yil 30-aprel kuniga qadar** tanlov nizomida belgilangan tartibda videoroliklarni topshirish kerak bo'ladi.

#### **V. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi**

13. Tanlovnining barcha bosqichlari uchun har bir yo'nalishda uch nafardan kam bo'limgan sohaning malakali mutaxassislaridan iborat hakamlar hay'ati shakllantiriladi.

14. Tanlovnining barcha bosqichlarini tashkil etish va o'tkazish tashkiliy qo'mita va hakamlar hay'ati tomonidan shakllantiriladi.

15. Hakamlar hay'ati a'zolari bir vaqtida tegishli tashkiliy qo'mita a'zosi bo'lishlari ham mumkin.

16. Barcha darajadagi hakamlar hay'ati qarori qat'iy bo'lib, o'zgartirilmaydi, e'tirozlar (*apellyatsiya*) qabul qilinmaydi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

17. Tanlovda ishtirok etish istagida bo'lgan talaba-yoshlar tyutorlar hamda dekan o'rindbosarlari orqali Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limiga filmlar va videoroliklarni taqdim etishi lozim.

#### **VI. Tanlovga taqdim etiladigan hujjatlar**

- ariza-anketa;
- shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi.

Boshqa ta'lim muassasalari talaba-yoshlarining hujjatlari tanlovda ishtirok etish uchun qabul qilinmaydi.

#### **VII. Tanlov g'oliblarini aniqlash va taqdirlash**

18. Tanlov g'oliblari hakamlar hay'ati tomonidan **50 ballik** tizimda, quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- ijodiy ishlarning mavzusining mazmun-mohiyati ochib berilganligi;
- ijodiy ishlarning tasvir, ovoz va montaj ishining sifati;
- muallifning ijodiy ishlarni yaratishdagi o'ziga xos yondashuvi;

- ishning plagiat emasligi;
- ijodiy ishlarning barcha toifadagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lishi;
- ijodiy ishlarda ma'naviy-axloyiy qadriyatlarimizga zid bo'lgan tasvir yoki mazmun aks ettirilmasligi;
- ijodiy ishlarning vaqtি *videoroliklar uchun 1 daqiqadan 3 daqiqagacha*, bo'lishi.

**Izoh:** Ijodiy ishlarning ijtimoiy tarmoqlarda tomoshaviyligi (prosmotr) ham alohida o'rganiladi.

19. Hakamlar hay'ati tomonidan qo'yilgan ballar tanlov yakunida umumlashtiriladi. Eng yuqori ball to'plagan ishtirokchilar orasidan *Videorolik yo'nalishida* quyidagi nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi:

<i>Eng yaxshi videorolik</i>	<i>Eng yaxshi operatorlik ishi</i>
<i>Eng yaxshi kreativ g'oya</i>	<i>Eng yaxshi rejissyorlik ishi</i>
<i>Eng yaxshi ssenariy</i>	<i>"Atrof-muhitni asrash va</i>
<i>Eng ko'p tomoshabin e'tirofi</i>	<i>"yashil" iqtisodiyot yili" uchun</i>

21. Tanlovda eng yaxshi natijalarga erishgan ishtirokchilar tashkilotchilar va homiyalar tomonidan tayyorlangan sertifikat, diplom va esdalik sovg'alar bilan rag'batlantiriladi.

### **VIII. Yakuniy qoidalar**

22. Tanlovnı o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjalarda belgilangan tartibda hal etiladi.

23. Tanlovnı o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlar quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

- mas'ul ijrochilarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lari;
- jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;
- qonunchilikda belgilangan hujjalarda taqiqlanmagan boshqa manbalar.